

2019 yil yanvar-iyun oylarida  
**QURILISH ISHLARI**

**Raqamlar:**

Qurilish ishlari hajmi –  
**1855,2 mlrd. so'm**

Yirik qurilish tashkilotlari  
ulushi – **10,1 %**

Kichik tashkilotlar va  
mikrofirmalar  
ulushi – **61,0%**

Norasmiy sektor  
ulushi – **28,9 %**

Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo'nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog'i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Respublikada jami 1855,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 144,6%ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 187,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 10,1%ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,6 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmining 61,0 %i yoki 1132,2 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,9 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 28,9 % yoki 535,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 221,2 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor



O'tgan yilning shu davriga nisbatan % da



Jami hajmga nisbatan ulushi %da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 69,9 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 99,7 %punktga ko'paydi.



Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 12,5%ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,4 % punktga ko'paydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 17,5% to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 11,0% punktga ko'paydi.

### 2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so'm



*Bino va inshootlar qurilishi*

**1296,8  
mlrd.sóm**



*Fuqarolik ob'ektlari qurilishi*


**232,0  
mlrd.sóm**



*Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

**326,4  
mlrd.sóm**

## Qurilish ishlari, xizmatlar- jami




2019 yil yanvar-iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va inshootlar qurilishining hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,7%ga ko'paydi, fuqarolik ob'ektlari qurilishi 16,4%ga oshdi, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari esa 11,0%ga ko'paydi.

Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihattan qayta qurollantirish jami qurilish ishlarining 73,8% ini tashkil qildi. Kapital, joriy tamirlash va boshqa pudrat ishlari ulushi esa 26,2%ni tashkil etti.

**2019 yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari tumanlar kesimida**


<b>Tumanlar</b>	<b>mlrd.so'm</b>	<b>o'sish sur'ati</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1855,2</b>	<b>144,6</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>554,3</b>	<b>115,7</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>161,3</b>	<b>112,8</b>
<b>Beruniy</b>	<b>149,9</b>	<b>223,2</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>36,8</b>	<b>135,8</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>36,5</b>	<b>199,2</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>170,7</b>	<b>102,5</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>23,2</b>	<b>112,0</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>22,5</b>	<b>177,1</b>
<b>Nukus tumani</b>	<b>99,4</b>	<b>237,2</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>64,5</b>	<b>158,3</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>85,3</b>	<b>206,7</b>
<b>To'rtkul</b>	<b>146,4</b>	<b>172,3</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>144,2</b>	<b>364,0</b>
<b>Chimboy</b>	<b>37,6</b>	<b>149,1</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>25,5</b>	<b>116,4</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>96,9</b>	<b>145,1</b>


## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1788,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 96,4 %ini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

## Qurilish ishlari turlari bo'yicha





Qo'ng'iro't tumaniga qarashli Karakalpakiya pasyolkasi aholi punkti "Obod qishloq" dasturi asosida yangi qiyofa kasb etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 15 tumandan mazkur dasturga kiritilgan 45 qishloqning har birida ushbu pasyolkadagi kabi qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun 215,1 milliard so'm mablag' yo'naltirilishi belgilangan.

Hozirda Mo'ynoq tumanida ko'p qavatli uylar qurilishi boshlandi



-O`zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2019-yil 16-yanvardagi 37-sonli qaroriga asosan Qoraqalpog`iston Respublikasi Mo`ynoq tumanini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish bo`yicha kompleks chora tadbirlar dasturi bo`yicha bajarilgan qurilish ishlari;


-TQVZ Texnogen ajiralmalarini qayta ishlash kompleksi qurilishining 1-2 bosqichi. KP 73 dan TQVZ gacha bolgan texnologik quvurlarning ichki tarmoqlaridagi suv quvurlarini qurish;

-Xojayli va Qong`irot tumanlarida kollektorlarni qazish , "Xayranli" va "Xatep" kanallarini rekonstruksiya qilish.

- Ellikqal`a tumanida "KT-1", "K-5", "Aqchakol", "KT-3", "K-4", "K-11", "Guliston", "K-1 shortanbay" kollektorlari, shuningdek, Nukus tumanida "Kerdar" kanalini ta`mirlash-tiklash ishlari bo`yicha katta hajmdagi qurilish ishlari bajarildi.

## Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %dagi ulushi)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF №4201-son "Obod mahalla" dasturi to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, mahallalarning me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish, shu asosda aholining turmush darajasini oshirish ishlari har bitta tuman bo'yicha mahallalarda ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika  
boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova  
(0361) 222-75-91